

**“DEVONU LUGATI-T-TURK” ASARINING ЎZBEK TILIДАГИ
НАШРЛАРИДА ТУРКИЙ МАТНЛАР СТАТИСТИК ТАХЛИЛИ**

Зилола Сатторова

ТДШУ докторанти

Annotatsiya: Jahon turkologiyasida muhtasham ilmiy, adabiy obida Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk asari butun islom olamiga turkiy tillar, turkiy xalqlarning madaniyati, urf odati, turmush tarzi, xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot berishni ko'zlab yozilgani uchun umumturkiy xalqlarning mushtarak badiiy merosi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqolada ushbu noyob asarning o'zbek tilida tayyorlangan nashrlaridagi turkiy matnlarning statistik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: nashr, statistik tahlil, bosh maqola, faksimile, original matn.

Аннотация: Книга Махмуда Кашгари «Девону Лугати-т-Тюрк», великолепный научно-литературный памятник мировой тюркологии, является общетюркским, поскольку написана с целью информирования всего исламского мира о тюркских языках, культуре тюркских народов, обычаях, быта и фольклора признано общим художественным наследием народов. В данной статье проводится статистический анализ турецких текстов в узбекскоязычных изданиях этого уникального произведения.

Ключевые слова: публикация, статистический анализ, основная статья, факсимиле, оригинальный текст.

Annotation: Mahmud Kashgari's "Devonu Lug'ati-t-Turk" a magnificent scientific and literary monument in world Turkology, is universally Turkic because it was written to inform the entire Islamic world about Turkic languages, the culture of the Turkic peoples, customs, lifestyles, and folklore. is recognized as the common artistic heritage of peoples. In this article, a statistical analysis of the Turkish texts in the Uzbek language editions of this unique work is carried out.

Key words: publication, statistical analysis, main article, facsimile, original text.

“Devonu lugati-t-turk” (keyingi o‘rinlarda DLT) sobiq ittifoq davlatlari ichida birinchi, dunyo miqyosida esa uchinchi bo‘lib 1960-1963-yillarda to‘liq o‘zbek tiliga tarjima etilib nashrga tayyorlangan. Ushbu murakkab va o‘ta mashaqqatli ishni o‘zbek olimi S.Mutallibov muvaffaqiyatli amalga oshirgan va asar bugungi kunimizgacha qator ilmiy ishlarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Biroq, bugungi kunda turkologiyada erishilgan yangi yutuqlar va asar qo‘lyozmasining (keyingi o‘rinlarda

MK) sifatli faksimile nashrlari tayyorlanishi nashr va qo'lyozmada ayrim tafovutli o'rinlar borligini ko'rsatmoqda. Shu bois 2016 va 2017-yillarda S.Mutallibov tarjimai asosidagi yangi ikki nashr dunyo yuzini ko'rdi. Mualliflari o'zbek turkologiyasining yetuk, ko'zga ko'ringan olimlari A.Rustamov, Q.Sodiqov (keyingi o'rinlarda QS) H.Boltaboyev va B.Isabekovdir (keyingi o'rinlarda HB).

"Devonu lugati-t-turk" ning ikkala yangi nashri ham S.Mutallibov nashriga asoslangan. Matn butunlay qayta tarjima qilinmagan. Noshirlar turkiy matnigina to'laligicha qayta transkripsiyaga o'giran. Talqinda S.Mutallibov tarjimai saqlangan. Faqat ayrim o'rinlardagina qayta talqinga ehtiyoj yuzaga kelgan.

O'zbekcha nashrlarning qiyosiy tahlilidagi ilk tafovut lug'at statistikasi bilan bog'liq. Hisobimizga ko'ra, S.Mutallibov nashrida 7222 ta bosh so'z izohlangan (1-jildda 3288 ta, 2-jildda 1447 ta, 3-jildda 2487 ta) DLT tadqiqotchisi J.Xudoyberdiyev hisobiga ko'ra, 7217 ta so'z va birikmalar bosh maqolacha sifatida ajratib ko'rsatilgan¹. E.Fozilov tadqiqida bu ko'rsatkich biroz ko'proq – 9222 ta². E.Fozilov indeks-lug'at asosida hisoblagan. Tadqiqotchining yozishicha, noshir shakldosh so'zlarni alohida qayd qilgan. Shuni aytish joizki, bu fikr indeks-lug'atgaga oid, biroq nashrda aksariyat polisemantiik va omonim so'zlar bir maqola tarkibiga kirgan. Shu asosda ikki xil natija olingan bo'lishi mumkin.

H.Boltaboyev nashrida 6962 ta (1-jildda 3003 ta, 2-jildda 1542 ta, 3-jildda 2417 ta), Q.Sodiqov nashrida esa 7596 ta bosh so'z va birikmaning ma'nosi izohlangan. Bu tafovut ikki omil asosida yuzaga kelgan:

*Birinchi*dan, matnda noshirlar o'z yondashuvlariga asosan ko'p ma'noli yoki omonim so'zlarni bir maqola tarkibida bergan yoki aksincha, ular alohida olingan. Bu xususiyat maqolalar sonining keskin farqlanishiniga olib kelgan. Xususan, *أُقْ أُتِلْدِي* *oq atildi* (o'q otildi) va *جَعَّكْ أَغْزِي أُتِلْدِي* *čečäk ağzi atildi* (gul, g'uncha og'zi ochildi) birikmalaridagi fe'l S.Mutallibov (SM.I,199) va H.Boltaboyev (HB.I,144) nashrida bir maqola, Q.Sodiqov (QS.90) nashrida esa ikki maqola sonida olingan. Qo'lyozmada esa bu birikmalar chegarasi oldingi va keyingi bosh so'zlardan nuqtali doiracha bilan

¹Xudoyberdiyev J. Mahmud Koshg'ariy hayoti va «Devony lug'otit turk» bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi. — Toshkent: Akademnashr, 2011. — B.8.

²Фазылов Э. Об изданиях и издателях «Дивана» Махмуда Кашгари. Советская тюркология. 1972. — №1. — Б.142.

ajratib qo'yilgan (MK.105/15,16). Bu ishoradan birikmalarning asosi bir so'z, bir maqola deb qarashimiz mumkin. Biroq, jumlar o'zaro qizil nuqta bilan ham ajratilgan. Fikrimizcha, Koshg'ariy so'zlarning shakli, masdar va kelasi zamon shakli bir xilligiga, biroq bir-biridan mustaqil omonim so'zlar ekanligiga ishora qilgan. Bunday farqlar asosan fe'l boblariga amal qiladi. Ismlar doirasidagi ko'p ma'noli so'zlarda ham ayni tafovut bor. Quyida S.Mutallibov va H.Boltaboyev bir maqola, Q.Sodiqovda esa uch maqola sonini bergan holat keltirilgan:

№	S.Mutallibov. 1960	H.Boltaboyev. 2016	Q.Sodiqov. 2017
1	اِحْ ich – xar narسانينگ ichi; اِحْ قُرْ ich qur – ichdan boғlanadigan belboғ; اِحْ سۆزْ ich söz- kўngildaги, dilдаги яширин нарса, сир. (СМ.І,69)	اِحْ ich – xar narسانينگ ichi; اِحْ قُرْ ich qur – ichdan boғlanadigan belboғ; اِحْ سۆزْ ich söz- kўngildaги, dilдаги яширин нарса, сир. (ХБ.І,44)	اِحْ ich (ич) – xar narسانينگ ichi.
2			[اِحْ ich (ич)] ich qur - ichdan boғlanadigan belboғ.
3			[اِحْ ich (ич)] ich söz – kўngildaги, dilдаги яширин нарса, сир. (ҚС.28)

Ikkinchidan, nashrlarda lug'atning ayrim leksik birlik sifatida izohlanayotgan so'zlari va ularning izohi tushib qolishi bilan bog'liq holatlar aniqlandi. Qo'lyozmaning 579 hamda 580 sahifalarida kelgan beshta maqola يېكلادی , يىملادی , يىشنادی , يىلنادی , يىلنادی (yiklädi, yamladi, yimlädi, yašnädī, yelnädī) bosh so'zlari, ular birikkan jumlar va arab tilidan tarjimasi DLT ning ilk nashriga kiritilmagan. Shuningdek, H.Boltaboyevning qayta nashrida ham bu maqolalar mavjud emas. Faqatgina

yuqoridagi soʻzlarning kirill yozuvidagi transliteratsiyasi yozilib, soʻng boʻsh joy qoldirib ketilgan xolos, matn ham talqin ham tushirilmagan. Bu maqolalar B.Atalay nashrida borligi uchun (BA.III,310) bosma nusxaning kamchiligi deb baholab boʻlmaydi. Shu sabab biz mazkur ikki nashr maqolalari hisobini chiqarishda bu soʻzlarni inobatga olmadik. Q.Sodiqov nashrida mazkur soʻzlarning matndagi holati, transkripsiyasi, talqini toʻliq kiritilgan (QS.428).

Qoʻlyozmaning 318/3 sahifasi *الْأَنْكُ بِرْ لَا كِ كَرْتِي* *ol anig birlä kerışdi* birikmasi va talqini ikkinchi nashrga kiritilmay qolgan (HB.II/66). Qolgan ikki nashrda mavjud (SM.II/95; QS.237). Bu holat matnning 418/3 sahifasidagi *الْأَنْكُ فُلْنُ كُرْتِي* *ol anig qulın kürätti* (u uning qulini qochirtirdi) soʻz-maqolasining berilishida ham takrorlangan. Mazkur birikma ham ikkinchi nashrda tushib qolgan (HB.II/203), qolgan nashrlarda toʻliq berilgan. Faqat har ikki jumladagi *الْأَنْكُ* *anig* soʻzi *anih/anih* tarzida oʻqilgan (SM.II/352; QS.303).

Q.Sodiqovning qayta nashri 88 sahifada kelgan quyidagi maqola ham S.Mutallibov (SM.I,196) H.Boltaboyev (HB.I,142) nashrlariga kirmagan: *الْأَشْدَى* *Ölišdi* – (oʻlishdi) hoʻl boʻldi. *Ölišdi näñ* – hoʻl boʻlgan narsa, hamma yeri hoʻl boʻlib ketgan narsa. (*ölišür, ölišmäk*). S.Mutallibov sahifaosti izohda bu soʻzning oʻrnini koʻrsatib oʻtgan. Uning taʼkidlashicha, B.Atalay mazkur birikma qoʻlyozmada mavjud, biroq bosma nusxada tushib qolgan deb izoh bergan. B.Atalayning izohini tasdiqlash mumkin. Bu oʻrin qoʻlyozmada mavjud: *الْأَشْدَى نَانَكُ* (MK.104/7). Xulosa qilsak, S.Mutallibov nashrida 6 maqola, H.Boltaboyev nashrida 8 maqola qoʻlyozmada va bosma nusxada mavjud boʻlsa-da, tushirib qoldirilgan. Faqatgina *ölišdi näñ* birikmasi bosma nusxada ham tushirilgan.

³ Al soʻzida alif ustida zamma qoʻyilmagan.